

## O'ZBEKISTONDA SUG'ORISH TIZIMLARI VA YER MELIORATSIYA JARAYONLARI TARIXIDAN (1950-1990-yillar)

A.A.Mamajanov – doktorant, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

*Farg'ona davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** qishloq xo'jaligi, paxta yakkahokimligi, irrigatsiya tizimi, melioratsiya, sovet hukumati, qayta qurish, sifon, O'zbekiston, qo'riq yerlar, suv ombori.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, хлопковая монополия, ирригационная система, мелиорация земель, советское правительство, реконструкция, сифон, Узбекистан, целинные земли, водохранилище.

**Key words:** agriculture, cotton monopoly, irrigation system, land reclamation, soviet government, reconstruction, siphon, Uzbekistan, virgin lands, water reservoir.

**Kirish.** 1955-yildan boshlab Sovet davlati "Tabiatni inson manfaatlariga bo'ysundirish" shiori ostida faoliyat olib bordi va shu davrda "sug'orish maqsadida imkon qadar ko'proq suvdan foydalanish mumkin, uning miqdori esa amalda cheksizdir" degan doktrina shakllantirildi. Ushbu mafkuraviy yondashuvning shakllanishiga Sovet davrida kichik va o'rta massivlarning sug'orishga jalb qilinishi, ishlab chiqarish korxonalari va qayta ishlash sanoatining yetarlicha rivojlanmaganligi sabab bo'ldi. Shu bilan birga, sanoatning intensiv rivojlanishi hamda aholining keskin o'sishi suv resurslariga bo'lgan talabni yanada oshirdi.

Respublika agrar siyosatida paxta yakkahokimligining joriy etilishi oqibatida asrlar davomida shakllangan va ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi izdan chiqdi. Paxta ekin maydonlarining keskin kengaytirilishi hamda sug'orish jarayonlarining tartibga solinmaganligi suv tanqisligi muammosini keltirib chiqardi. Natijada, respublika don va boshqa muhim oziq-ovqat xomashyolari, shuningdek, go'sht va sut mahsulotlari ta'minotida markaz hamda boshqa ittifoq respublikalari hisobiga qaram bo'lib qoldi. Bu esa aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Paxta yakkahokimligi siyosati oqibatida ilmiy asoslangan ekinlar almashinuvi tizimining buzilishi yer resurslarining meliorativ holatining yomonlashuviga, unumdorlikning pasayishiga va suv tanqisligining yanada chuqurlashuviga olib keldi. Shu tariqa, agrar siyosatdagi ushbu yondashuv uzoq muddatli ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning shakllanishiga zamin yaratdi.

**Tadqiqot usullari.** Ushbu tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil, muammo-xronologik yondashuv, obyektivlik tamoyili, strukturaviy-tizimli tahlil hamda og'zaki tarix metodlaridan foydalanildi. Ma'lumki, Sovet davlati irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib, bu borada qator qarorlarni qabul qilgan. Xususan, 1951-yil 8-fevralda SSSR Ministrlar Soveti "1951-yil bahoriga irrigatsiya tizimlarini tayyorlash to'g'risida" qaror qabul qildi. Unda irrigatsiya tizimlarining bahorgi mavsumga tayyorgarlik darajasi hududlar kesimida batafsil yoritilgan. Jumladan, 1951-yil boshida irrigatsiya va drenaj tarmoqlarini tozalash ishlari mamlakat bo'yicha 35 foiz darajasida bajarilgan. Bu ko'rsatkich SSSR bo'yicha o'rtacha 21 foiz, Andijon viloyatida 23 foiz, Samarqand viloyatida esa 25 foizni tashkil etgan. Shuningdek, so'nggi besh kun davomida butun mamlakat bo'yicha o'rtacha 136 ming kishi doimiy asosda ish olib borgan, aslida esa bu raqam 472 ming kishini tashkil etishi belgilangan edi [13: 45].

Shu bilan birga, Andijon viloyatida urushdan keyingi besh yil mobaynida xalq mehnati evaziga 39 ta tuman va tumanlararo kollektor ta'mirlanib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash chorolari amalga oshirildi. Natijada Zavrak va Niyozbotir massivlarida sug'oriladigan yerlarning foydalanish imkoniyati yaratildi. 1951-yilga kelib viloyatda 44 ming gektar yerning meliorativ holati

yaxshilandi. Shu yil oxiriga qadar esa SSSR hududlari oldiga yangi irrigatsiya tarmoqlarini ishga tushirish vazifasi qo'yildi. Bu ko'lam umumiy hisobda 368,0 ming gektarni tashkil etib, shundan 58,0 ming gektari Buxoro viloyati, 52,0 ming gektari esa Andijon viloyatiga to'g'ri kelgan [13:47].

**Natijalar va muhokamalar.** 1951-yilda Farg'ona viloyatida irrigatsiya tarmog'ini tozalash ishlari 1 043,4 ming metr, kapital qurilish ishlari 1 302,1 ming metr, xo'jaliklararo tozalash ishlari esa 2 201,5 ming metr hajmda amalga oshirildi [4]. 1952-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda sug'oriladigan yerlarni kengaytirish dastlab 73 ming gektar deb belgilangan bo'lsa-da, amalda 31 823 gektar maydon o'zlashtirildi.

1951-1955-yillarda Sirdaryo, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari, Markaziy Farg'ona, Surxondaryo va Amudaryo etaklarida yirik irrigatsiya inshootlari qurildi. Xususan, 183 km uzunlikdagi Eski Angor kanali, Uchqizil va Tuyabo'g'iz suv omborlari barpo etildi. 1950-1952-yillarda 650 ming gektardan ortiq maydonlarda yangi irrigatsiya tizimiga o'tildi, ammo tizimlar tez-tez ishdan chiqib, tuproq sho'rlanishi kuchaydi. Shu davrda irrigatsiya tizimida zemlesos mashinalari joriy qilindi: 1953-yilda 108 ta texnika bo'lgan bo'lsa, 1960-yilda ularning soni 435 taga yetdi.

1954-yilda irrigatsiya ishlari uchun 2 390 traktor, 193 ekskavator, 295 skreper, 130 buldozer va boshqa texnika ajratildi. Shu yilning 9-noyabrida irrigatsiya tarmog'ini mexanizatsiyalashni oshirish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1955-yilda esa irrigatsiya tarmoqlarini mexanizatsiyalashgan holda 4 906 000 m<sup>3</sup> hajmda tozalash rejalashtirildi.

SSSRning beshinchi besh yillik rejasida irrigatsiya va sho'rlanishni oldini olish ustuvor vazifa etib belgilandi. Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Janubiy Qoraqalpog'iston va Bosh Turkman kanali hududlarida irrigatsiya uchun 80 mln rubl mablag' ajratildi, Surxondaryoda 10 ming gektar yer o'zlashtirish va Uchqizil suv omborini yakunlash belgilandi [17].

1951-1955-yillarda sug'oriladigan yerlar 227,8 ming gektarga ortdi, asosan paxta maydonlari kengaydi. 1951-1955-yillarda 133,7 ming gektar yer o'zlashtirilgan bo'lsa, 1959-1965-yillarda bu ko'rsatkich 381,8 ming gektarga yetdi. 1953-1964-yillarda paxta xosili 2 525,5 ming tondan 3 671,4 ming tonnagacha ortdi, biroq hosildorlik pasayib, 1 gektardan 22,0 sentnerdan 19,2 sentnergacha tushib ketdi [14].

Oltinchi besh yillik rejada (1956–1960) 325 ming gektar maydonda irrigatsiya tarmoqlarini qurish, 6,8 mln gektar yaylovlarni sug'orish, Tuyabo'g'iz, Chimqo'rg'on va Surxondaryo suv omborlarini qurish vazifalari qo'yildi. 1957–1960-yillarda kollektor qurilishi jadallashib, 2,8 mln m<sup>3</sup> qazish ishlari amalga oshirildi, Sardoba nasos stansiyasi qurilib, 24 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi.

1957-1961-yillarda sug'oriladigan yer maydonlari 104,7 ming gektarga kengaydi, 1965-yilda esa ularning hajmi 3

179,1 ming gektarni tashkil etdi. 1958-yilda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini kuchaytirishga oid qarorlar qabul qilindi [3]. 1960-yilda sug'oriladigan yerlar 2 474 ming gektar bo'lsa, 1975-yilda 2 907,8 ming gektarga yetdi [2].

1-jadval. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning o'sish dinamikasi, ming gektar hisobida (1950–1986) [17].

| Yillar      | 1950 | 1960 | 1965 | 1970 | 1975 | 1980 | 1985 | 1986 |
|-------------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Ming gektar | 2276 | 2964 | 2639 | 2696 | 3006 | 3476 | 3930 | 4020 |

1950-1990-yillarda Andijon viloyatida sug'oriladigan yerlar hajmi va suv iste'moli muntazam oshib bordi. 1950-yilda 217 ming gektar bo'lgan maydon 1990-yilda 289,4 ming gektarga yetdi [6]. 1967-1980-yillarda yangi sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligiga jalb qilinib, suv sarfi 10 mlrd m<sup>3</sup>ni tashkil etdi. Shu davrda 1 gektarga to'g'ri keladigan suv hajmi o'rtacha 3,6 ming m<sup>3</sup>ga ko'paydi. 1960-yilda respublikada sug'oriladigan yerlar 2,57 mln gektar bo'lgan bo'lsa, 1980-yillarga kelib 4,22 mln gektarga yetdi [16]. Biroq 1970-yillarda yuqori energiya sarfi va suv taqchilligi kuchaydi [7:109].

1970-1980-yillarda sug'oriladigan yerlar hajmi 2 732,7 ming gektardan 4 205 ming gektargacha kengaydi. Andijon viloyatida 1976-yilda 45,9 ming gektar sho'rlangan yer yuvildi. Shu yillarda drenaj inshootlari ko'paygan bo'lsa-da, suv sarfi ortib, irrigatsiya tizimida deformatsiya yuzaga keldi. Samarqand viloyatida 1 279 gektar yangi yer o'zlashtirildi, Buxoroda esa 39,9 % yerda irrigatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. 1978-yilda sug'orishga 45 mlrd m<sup>3</sup> suv sarflanib, bu qishloq xo'jaligidagi suv iste'molining 95 %ini tashkil etdi. 1980-yilda esa sug'orish suvi hajmi 25 %ga kamayib, hosildorlik pasaydi. 1976–1980-yillarda 482,1 ming gektar yer sug'orishga jalb etilgan bo'lsa, 1986–1990-yillarda bu ko'rsatkich 159,4 ming gektarga tushdi. Shu bilan birga, "1986-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, 500 ming gektar yer meliorativ talablarga javob bermas edi" [XXVI s'ezd rezolyutsiyasi, 1981].

Qoraqalpog'iston ASSRida 1975-1984-yillarda sug'oriladigan yerlar 150,3 ming gektarga kengaydi [5]. 1981-yilda irrigatsiya tizimini rekonstruksiya qilish uchun

14,2 mln rubl ajratilib, 2 095 gektar yer qishloq xo'jaligiga jalb qilindi [11]. 1985-yilga kelib mamlakatda 23 ta suv ombori mavjud bo'lib, suv muvozanati buzilishi natijasida ekologik muammolar kuchaydi [8]. Shu davrda suv iste'moli 1985-yilda 54,8 km<sup>3</sup> bo'lsa, 1990-yilda 52,4 km<sup>3</sup>ni tashkil etdi, uning 85 %i sug'orishga sarflandi.

1980-yillarda 238,6 ming gektar yangi yer o'zlashtirilib, 4 ta yirik suv ombori (jumladan, Andijon) foydalanishga topshirildi. Ammo sho'rlangan yerlar 566 ming gektarga yetib, melioratsiya muammolari kuchaydi. 1986-yilda respublikada 25,8 ming km xo'jaliklararo kanallar va 120 ming km drenaj kollektorlar mavjud edi. Shu yili Farg'ona viloyati Yazyovon tumanida sug'oriladigan yerlarning 70 %ga yaqini turli darajada sho'rlangan edi.

1960-1990-yillarda sug'oriladigan yerlar 2 mln gektarga kengaydi, ammo don yetishtiriladigan yerlarning ulushi 57 %dan 22 %ga tushdi. Bu jarayon paxta monopoliyasi va majburiy mehnat bilan chambarchas bog'liq edi [9]. 1986-yilda sug'oriladigan maydonlarning uchdan biri qayta sho'rlanishdan zarar ko'rdi, ayrim hududlarda yer osti suvlarining ko'tarilishi oqibatida yerlar yaroqsiz holga keldi. 1990-yilda drenaj tarmoqlari 2,62 mln gektarni qamrab olgan bo'lsa-da, 3,6 mln gektar yer sun'iy drenajga muhtoj edi [18].

1990-yillarga kelib mamlakatda 245 mingta irrigatsiya tizimi, 47 ta suv ombori, 120 ming km drenaj kollektor va 3 433 ta drenaj qudug'i faoliyat yuritgan, 1,5 mln gektar yer mashinalar yordamida sug'orilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Sovet agrar siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, O'zbekistonda paxta yakkahokimligini o'rnatish irrigatsiya tizimining rivojlanishiga turtki bo'lishi bilan birga, ko'plab salbiy oqibatlarga ham olib keldi. Xususan, respublikaning aholiga g'alla va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishda markazga qaramligi ortdi. Paxta yakkahokimligi ta'sirida irrigatsiya va melioratsiya tizimlarining kengaytirilishi natijasida yerlar asta-sekin o'z unumdorligini yo'qotdi, suv resurslari tanqisligi esa yildan-yilga kuchaydi. Shuningdek, sug'oriladigan yerlarni qayta ishlash jarayonida ham qator xatoliklarga yo'l qo'yildi. Natijada respublikaning chuqur paxtachilikka ixtisoslashuvi oqibatida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuzaga keldi.

#### Adabiyotlar

1. Абдурахмонова Т. Ўзбекистонда суғориш иши ривожланиши. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1972. 27-б.
2. Акрамов Э. Ерларни суғориш самарадорлигини ошириш масалалари. – Тошкент: «Фан», 1978. 45-б.
3. O'zbekiston Milliy arxivi, R-619-fond, 1-ro'yxat, 101-yig'ma jild, 62-ish.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Arxivi, Farg'ona viloyati bo'limi, 1-fond, 1-ro'yxat, 173-yig'majild, 18-ish.
5. Komilov O.K. Modernization History of the Irrigation System in Uzbekistan (In the Example of the Period of Independence). // Design Engineering, 2021. – P. 6111-6120.
6. Ведомственный архив Нарын-Карадарьинского бассейнового управления ирригационных систем Министерства водного хозяйства Республики Узбекистан, фонд 57, опись 1, ед.хран. 381. – С.46.
7. Герман М. Реформа сельского хозяйства (на примере Узбекистана) // Центральная Азия 2010 - Перспективы человеческого развития. Региональное бюро по странам Европы и СНГ. Глава 9. – Алматы: 1999. – С.109.
8. История Узбекистана / Под редакцией Р.Х. Муртазоевой. – Ташкент: «Янги аср авлоди», 2003.
9. Kandiyoti D. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. // Programme on Social Policy and Development, Paper №11, Geneva: UNRISD, 2002. – P. 2-3.
10. Мамедов А.М. Развитие ирригации в Узбекистане. – Ташкент: «Фан», 1967.
11. Наманганский областной государственный архив, фонд 275, опись 1, ед.хран 3620, – С. 29.
12. Национальный архив Узбекистана, фонд Р.837, опись. 38, ед.кхран. 20, Л. 79.
13. O'zbekiston Milliy arxivi, R-2676-fond, 1-ro'yxat, 1010-yig'majild, 70-b.
14. Новая история Узбекистана. Вторая книга. Узбекистан в период советского колониализма. / Составители: М.Джураев, Р.Нуруллин, С.Камолов и другие. – Ташкент: «Шарк», 2000. – С.54.
15. Обламуратов Н. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971-1990 гг. опыт, уроки и проблемы: Автореф...дисс.док.ист.наук. – Ташкент: 1994. – С.25.

16. Rakhmatullaev S., Huneau F., Celle-Jeanton H., Coustumer P., Motelica-Heino M., Bakiev M. Water reservoirs, irrigation and sedimentation in Central Asia: a first-cut assessment for Uzbekistan. // Environmental Earth Sciences. Volume 68.-Springer Berlin Heidelberg, 2013. – P. 991.

17. Farg'ona viloyati davlat arxivi, 1022-fond, 2-ro'yxat, 182-yig'majild, 127-b.

18. Гаевая Т.Я., Писарева В.Н. Экологическая ситуация в Узбекистане. // World bank, 2003. [http://www.igpi.ru/bibl/igpi\\_publ/uzb\\_eco.html](http://www.igpi.ru/bibl/igpi_publ/uzb_eco.html)

19. Irrigation in Central Asia: social, economic and environmental considerations. – P.13. <http://www.worldbank.org/eca/environment>

**REZYUME.** Maqolada arxiv manbalari va tarixiy materiallar asosida O'zbekistonda markazning paxta yakkahokimligi amaliyoti va uni yanada mustahkamlash maqsadida respublikada yirik sug'orish kanallari va nasos stansiyalarini qurish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar doirasida olib borilgan siyosati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatda melioratsiya va yerlarni sug'orish jarayoni, shu hududlarda sovet hukumatining paxta yakkahokimligi siyosati tamoyillari asosida paxta yetishtirishga ixtisoslashgan rayon va sovxozlarning tashkil etilishi va paxta yetkazib berish va uning salbiy oqibatlari asosiy tarixiy manbalardan foydalangan holda yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda muallif O'zbekistondagi qo'riq yerlarning meliorativ holati va melioratsiya qilingan yerlarda tashkil etilgan davlat xo'jaliklari tarixini o'rgangan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье на основе архивных источников и исторических материалов анализируется политика центра дальнейшего усиления монокультурного хлопка в Узбекистане, проводимая в рамках предпринимаемых мер по строительству в республике крупных оросительных каналов и насосных станций. Также, процесс мелиорации и орошения земель в стране, а также организация районов и совхозов на этих территориях специализировались на выращивании хлопка на принципах хлопковой монопольной политики Советского правительства и увеличении обеспеченности хлопчатником хозяйств центр и его отрицательные результаты освещаются с помощью основных исторических источников. Кроме того, в исследовании автор изучил мелиорацию целинных земель в Узбекистане и историю совхозов организованных на мелиорированных землях.

**SUMMARY.** The article analyzes the policy of the centre of the further strengthening mono cultural clap in Uzbekistan that in undertaken measures on building of large irrigation canals and pumping stations in the Republic on the basis of archival sources and historical materials. Therefore, the process of reclamation and irrigation of lands in the country as well as, organization of districts and state farms in these areas specialized to cotton - growing on the principles of cotton monopoly policy of the Soviet government and increase of provision of cotton to the centre and its negative results are elucidated with the help of main historical sources. Besides, in the research the author studied the reclamation of virgin lands in Uzbekistan and the history of state farms organized in the new reclaimed lands.

## **EKINSHI JÁHÁN URÍSINAN KEYINGI DÁWIRLERDE QARAQALPAQSTANDA KITAPXANALAR JAǴDAYÍ**

**R.S.Reymbaev** – *tariyx ilimleri boyinsha filosofiya doktori*  
*Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti*

**Tayanch so'zlar:** kutubxona, tashviqot va targ'ibot ishlari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, kutubxonachilik, kitob fondi.

**Ключевые слова:** библиотека, агитационно-пропагандистская работа, культурно-просветительные учреждения, библиотечное дело, книжный фонд.

**Key words:** library, propaganda and propaganda work, cultural and educational institutions, librarianship, book collection.

**Kirisiw.** Ekinshi jáhán urısınan keyin respublika húkimeti mádeniy-agartıwshılıq mákemeleri tarmaǵın tiklew wazıypaların belgilep berdi. 1946-jılı aprel ayında Ózbekstan SSR Ministrler Soveti hám Ózbekstan Kompartıyası Oraylıq Komiteti "Ózbekstan SSR mádeniy-agartıwshılıq mákemeleriniń jumısın jaqsılaw ilajları haqqında" qarar qabıl etti. Usı qarar tiykarında Qaraqalpaqstan oblastlıq partiya komiteti byurosınıń 1946-jıl 27-maydaǵı qararı menen de usınday qarar qabıl etilgen. Qaraqalpaqstan oblastlıq partiya komitetiniń qararında mádeniy-agartıwshılıq mákemeleriniń ahwalı miynetkeshlerdiń mádeniy talaplarınan artta qalǵanlıǵı, bar oblastlıq mádeniyat úyleri, qalalıq klublar, qızıl chayxanalar, oblastlıq hám awıllıq kitapxanalar, oqıwxanalar elege shekem abadanlastırılmaǵanlıǵı, úgit-násiyat hám úgit-násiyatlaw, mádeniy-agartıwshılıq jumıslar orayı, urıs jıllarında jabılǵan kolxoz klubları tarmaǵı ele kóp jaǵınan tiklenbegenligi kórsetilgen edi [1].

**Ádebiyatlar analizi hám metodlar.** Maqala ulıwma qabıl etilgen tariyxıy metodlar, yaǵnıy tariyxıylıq, salıstırmalı-logikalıq analiz, izbe-izlik hám pánler aralıq qatnaslar tiykarında sáwlelendirilgen. Sonday-aq temani ashıwda, izertlewge tiyisli basıp shıǵarılǵan ilimiy maqalalar, statistikalıq materiallar topları, arxiv hújjetleri

tallandı hám ulıwmalıq maǵlıwmatlar sıpatında paydalanıldı.

**Talqılaw hám nátiyjeler.** 1946-jılı Qaraqalpaqstan Ministrler Keńesi janında Mádeniy-agartıwshılıq basqarması shólkemlestirilip, rayon, qalalarda mádeniy-agartıwshılıq bólimleri jumıs alıp baradı. Qaraqalpaqstanda bul basqarmaǵa Tashpulat Chigataev tayınlanadı [2]. Basqarma sistemasına Respublikalıq kitapxana, Mádeniyat úyi, Úlketaniw muzeyi, lekciya byurosı, rayon hám qalalardaǵı 168 klub hám 37 kitapxana kiredi [3]. Tiykargı wazıypa – urıs jıllarında belgili sebeplerge baylanislı jabılıp qalǵan mádeniy-agartıwshılıq mákemeler sistemasın qayta tiklew, kolxozlarda basqa xojalıq maqsetlerinde paydalanılıp atırǵan kitapxana hám klub imaratların qaytarıp alıw, onlaw, xalıqqa mádeniy-agartıwshılıq jaqtan xızmet etiwge baǵdarlawdan ibarat edi.

Biraq, bul jańa finanslıq investiciyalardı talap etti. Soǵan qaramastan, jaslar óz baslaması menen awıladaǵı kitapxana mákemelerin óz kúshleri menen onlaw arqalı qısqa waqt ishinde kóplegen kitapxanalar xalıqqa kitap penen jaqsı xızmet kórsetiw imkaniyatına iye boldı. Máselen, Kegeyli rayonında da qısqa waqt ishinde kitapxanalar jumısı jolǵa qoyıldı. Rayonlıq kitapxanada kitapqumarlar kóbeydi, gazeta-jurnallarga jazılıw jolǵa